QASHQADARYO VILOYATI SHAHRISABZ SHAHAR HOKIMINING

QARORI

2024-yil 18-oktabr | 164-4-209-Q/24 | Shahrisabz shahar hokimligi

Shahrisabz shahrida ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni 2025-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 20.10.2020 yildagi “Aholini bandligi to‘g‘risida”gi O′RQ-642-son Qonunining 9-bob 38,39,40,41,42,43-moddalari *(Qonun xujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.10.2020 ŭ., 03/20/642/1396- son)*, O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining *(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami 2008 yil, 29-30-son, 277-modda)* 25-moddasi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zahiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga *(O‘zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi 11.12.2017 yil09/17/965/0393-son)*asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun shaharda 2025 yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N :

1. Ijtimoiy muhofazaga muhtojlarning soni o‘zgarishiga qarab ular uchun belgilanadigan ish o‘rinlarining eng kam soni va ularga qo‘yiladigan talablarni aniqlash uchun maxsus komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Shahrisabz shahri bo‘yicha 2025-yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlari ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun xodimlarning ro‘yxatdagi o‘rtacha sonining 10 foizi (72 kishi) miqdorida, 2-ilovaga muvofiq tashkil etilsin. Shu jumladan:

o‘n to‘rt yoshgacha bolalari bo‘lgan va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun 33 foiz (24 kishi);

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari 40 foiz (29 kishi);

safarbarlik chaqiruvi zahirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar 3 foiz (2 kishi);

nogironlar uchun 10 foiz (7 kishi);

pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun 5 foiz (4 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar, 7 foiz (5 kishi);

odam savdosi qurbonlari uchun 2 foiz (1 kishi);

oilaviy (maishiy) zo′ravonlikdan jabrlanganlar uchun 5 foiz (4 kishi).

4. Ish beruvchilar ushbu toifa shaxslar uchun ish o‘rinlari xodimlar tomonidan o‘zlarining mehnat majburiyatlarini to‘siqlarsiz bajarishini ta’minlaydigan sanitariya-gigiyena normalariga va mehnat sharoitlariga muvofiq bo‘lishini ta’minlasin.

Bunda:

nogironlar uchun salomatligi va mehnat faoliyatiga nisbatan qo‘yiladigan belgilangan talablar hisobga olingan holda mehnat vazifasini to‘siqsiz bajarish imkonini beruvchi ish joylari;

yoshlar uchun, ular umumta’lim muassasalarini tamomlaganlaridan keyin ularning kasb-hunar tayyorgarligiga muvofiq keluvchi ish joylari;

14 yoshga to‘lmagan bolalari bor yolg‘iz ota, yolg‘iz onalarga hamda ko‘p bolali ota-onalarga bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bajarishni birga qo‘shib olib borish imkonini beruvchi, o‘zgaruvchan jadvalli ish joylari;

jazoni ijro etish muasasalaridan ozod qilingan yoki sud qarori bilan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralariga tortilgan shaxslar uchun ularning kasb tayyorgarligi hisobga olingan holdagi ish o‘rinlari.

5. Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar yil boshlanishidan oldin 10 kundan kechikmay muhtojlarni ishga joylashtirish uchun zahiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida 25 (yigirma besh) foizi miqdorida ish o‘rinlari zaxiraga qo‘yilishi va tayyorgarligini ta’minlashi, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar Shahrisabz shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini xabardor qilsin.

6. Muhtojlar uchun ish o‘rinlarining qolgan qismini zaxiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlashi, bu haqda Shahrisabz shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga birinchi chorak tamom bo‘lganidan so‘ng, 10 kundan kechikmay xabardor qilsin.

7. Ushbu qarorda nogironlar uchun zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonidan ortiqcha nogironlar uchun ish o‘rinlari tashkil etgan tashkilotlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda imtiyozlar belgilanadi.

8. Muhtojlar uchun ish o‘rinlarini zahiraga qo‘yish bo‘yicha Shahrisabz shahar hokimining qarorini bajarmagan korxona, tashkilot va muassasalarning mansabdor shaxsiga, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlik belgilangan.

9. Barcha korxona, tashkilot va muassasalar har oyda hisobot oydan keyingi oyning 5-kunigacha Shahrisabz shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga 3-ilovasiga muvofiq shakl bo‘yicha muhtojlarni ishga joylashtirish to‘g‘risida ma’lumot taqdim etsin.

10. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida”gi (AV ro‘yxat raqami №3163-son, 31.05.2019 yil) buyrug‘iga asosan, subsidiyalar ajratib berish tartibi amaliyotga joriy etilganligini hisobga olgan holda, “Ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan korxona va tashkilotlarga – har bir xodim uchun 6 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida haq to‘lash tavsiya etilsin.

11. Shahrisabz shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (R.Kayumov) ga bir hafta muddatda, mazkur qarorning 2-ilovasida ko‘rsatilgan korxona, tashkilot va muassasalarning rahbarlari e’tiboriga ma’lumot yetkazilishini ta’minlasin.

12. Shahrisabz shahar hokimining 2023-yil 29-sentabrdagi 102-4-209-Q/23-sonli qarori 2024-yil 31-dekabrdan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

13. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Shahrisabz shahar hokimining birinchi o‘rinbosari A.Uzoqov zimmasiga yuklatilsin.

14. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Shahrisabz shahar hokimi



BURIYEV SHERZOD AHADOVICH

Shahrisabz shahar hokimining
2024-yil 18-oktabrdagi
164-4-209-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Shahrisabz shahar bo‘yicha ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish maqsadida 2025-yilda band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlarini ijrosini ta’minlash bo‘yicha
I SH CH I K O M I S S I YA T A R K I B I

T/R	F. I. SH	Lavozimi
1	A.Uzoqov	Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari, komissiya raisi
2	A.Sultonov	Shahrisabz shahar hokimining yoshlar ishlari va ijtimoiy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari, komissiya raisi o‘rinbosari
A ’ Z O L A R I		
3	R.Kayumov	Sharisabz shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i
4	N.Meyliyev	Shahrisabz shahar I.I.B.boshlig‘i
5	M.Xolbo‘tayev	Shahrisabz tuman shahar mudofaa ishlari bo‘limi boshlig‘i
6	O.Narbayev	Shahrisabz shahar tibbiyot birlashmasi boshlig‘i
7	SH.Temirov	Shahrisabz shahar davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘i
8	SH.Raxmonov	Shahrisabz shahar budjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi bo‘limi boshlig‘i
9	SH.Zikrillayev	Shahrisabz shahar Yoshlar ishlari agentligi boshlig‘i

Shahrisabz shahar hokimining
2024-yil 18-oktabrdagi
164-4-209-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Shahrisabz shahri bo‘yicha 2025-yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlariga ishga joylashtirish bo‘yicha MANZILLI JADVAL

T/R	Tumanlar nomi	Topshiriq belgilangan korxona nomi	Korxonani INN raqami	korxonada ishlovchilar soni	Jami band qilingan ish o‘rinlari soni	shu jumladan:

						14 yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalariga	Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar, «Mehribonlik» uylarining bitiruvchilari, shuningd	Muddatli xarbiy xizmatdan bo‘shatilganlar	Nogironlar uchun	Pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun	Jazoni o‘tash muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun	Odam savdosi qurboni uchun	Atrofdagilar uchun xavf tug‘dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasallik-lar-dan azob chekuvchi shaxslar hamda qonun xujjatlarga muvofiq boshqa shaxslar uchun	Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlanganlar uchun

							ek oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari						
1	Shahri sabz shahar	27-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	207070624	20	2	1	1							
2	Shahri sabz shahar	9-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	207004972	22	2	1	1							

3	Shahri sabz shahar	O'zbekiston mudofaasiga ko'maklashuvchi "VATANPARVAR" tashkiloti Shahrisabz avtomobil maktabi	200673083	24	2	1		1						
4	Shahri sabz shahar	1-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	207071582	27	2	1	1							
5	Shahri sabz shahar	Bolalar va o'smirlar futbol maktabi	206944421	28	2	1	1							
6	Shahri sabz shahar	15-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	207004996	34	2	1	1							
7	Shahri sabz shahar	12-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	207027739	34	2	1	1							

8	Shahri sabz shahar	4-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	20702 7722	35	2	1	1							
9	Shahri sabz shahar	22-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	20700 5006	37	2	1	1							
10	Shahri sabz shahar	5-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	20700 4989	37	2	1	1							
11	Shahri sabz shahar	26-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	20702 8809	37	2	1	1							
12	Shahri sabz shahar	24-maktabgacha ta'lim muassasasi	20700 5053	38	2	1	1							
13	Shahri sabz shahar	"VILOYAT 2-KO' Z KASALLIK LARI SHIFOXON ASI" davlat	20160 2289	34	2	1	1							

		unitar korxonasi												
14	Shahri sabz shahar	Ipak yo'li turizim va madaniy meros xalqaro universiteti huzuridagi Shahrisabz turizim va madaniy meros texnikumi	20160 2534	48	2	1	1							
15	Shahri sabz shahar	17-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	20390 4195	49	2	1	1							
16	Shahri sabz shahar	10-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	20700 5092	50	3	1	1			1				
17	Shahri sabz	23-sonli umumiy o`rta	20322 6920	55	3	1	2							

	shahar	ta`lim maktabi												
18	Shahri sabz shahar	Respublika o'lat profilaktika markazi Qashqadaryo filiali	207062941	96	2		1					1		
19	Shahri sabz shahar	"A GREAT UNION " M.CH.J.	311555514	21	2				1		1			
20	Shahri sabz shahar	"O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIY MEROS AGENTLIGI MADANIY MEROS OBEKTLARI RESTAVRATSIYASI " DM	309497980	33	2		2							
21	Shahri sabz shahar	"JASI ASI IMRON" X.K.	309550401	25	2				1					1

22	Shahrisabz shahar	"KESH MEDICAL PLAZA" M.CH.J.	203012824	78	2	1	1						
23	Shahrisabz shahar	"MEGA KOINOT" M.CH.J.	305567746	20	2				1				1
24	Shahrisabz shahar	Shahrisabz shahar 2-son kasb-hunar maktabi	200673574	53	3	1	1			1			
25	Shahrisabz shahar	Shahrisabz shahar 1-son kasb-hunar maktabi	200674969	107	5	1	2	1	1				
26	Shahrisabz shahar	Shahrisabz shahrining tarixiy qismini obodonlashtirish, ko`kalamzorlashtirish va saqlash	207239094	401	13	2	3		2	2	3		1

		departamenti												
27	Shahri sabz shahar	"LORENZ MEBEL" M.CH.J.	31151 6427	63	3				1		1			1
Jami				**1506**	**72**	**22**	**27**	**2**	**7**	**4**	**5**	**1**		**4**

Shahrisabz shahar hokimining
2024-yil 18-oktabrdagi
164-4-209-Q/24-son qaroriga
3-ilova

Tashkilot nomi
_____

Yuridik manzili:
_____

Bandlikka ko‘maklashish markaziga taqdim etiladi.

Har chorakda hisobot davridan keyingi oyning 10 sanasiga qadar

2025-yilning _____ choragida ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish to‘g‘risida
A X B O R O T

1. Hisobot yilida mahalliy davlat xokimiyati organining qaroriga muvofiq nazarda tutilgan band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlari soni --- ish o‘rni, shu jumladan nogironlarni ishga joylashtirish uchun --- ish o‘rni

2. Band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlariga ishga joylashtirilganlar soni:

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar toifalari	**Hisobot davri-ning yakuniy holatiga ko‘ra ishlayotganlar (kishi)**	**Shundan: ishga joylashtirilganlar**	
		Hisobot (chorakda) oyida	**Yil boshidan**
Jami:			
Shu jumladan:			
O‘n to‘rt yoshgacha bolalari va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz ota, yolg‘iz ona va ko‘p bolali ota-onalar			
Ta’lim muassasalarini tugatgan yoshlar			
Muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar			
Nogironlar			
Bandlikka ko‘maklashuvchi tuman markazlarida ish qidiruvchi sifatida hisobda turgan pensiya yoshiga yaqinlashib qolgan shaxslar			

Jazoni o‘tash muassasalaridan ozod qilingan, jazoni o‘tayotgan yoki sud qaroriga ko‘ra tibbiy xarakterdagi majburiy choralar ko‘rilgan shaxslar			
Odam savdosidan jabrlanganlar uchun			
Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarning boshqa toifalari			

3. Hisobot davri oxirida mahalliy davlat hokimiyati organining qaroriga muvofiq nazarda tutilgan band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlari soni: _____ ish o‘rni.

Tashkilot rahbari: _____
(imzo)

Kadrlar bo‘limi (inspektori) boshlig‘i: _____
(imzo)

M.O‘.

2025-yil "____"